

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TASHKILY-HUQUQIY JIHATDAN  
SHAKLLANTIRISH VA UNING YURIDIK TAHLILI

Rustamov Muhammadyusuf Islomjon o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti, Advokatlik faoliyati yo'nalishi,  
magistrant*

**Annotatsiya:** *Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun banklar va ularning faoliyatiga chuqurroq yondashish talab etiladi. Chunki aynan banklar mamlakat moliyaviy-iqtisodiy sohasini tizimlashtirib, barqarorlashtirib turish funksiyasini amalga oshiradi. Shunday muhim mas'uliyat yuklatilganligi sababli ham banklarni tashkil etish boshqa subyektlarga qaraganda muyyan talablarni, bosqichlarni, qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu tezishda banklarni tashkil etish shakli, tartibi, banklarga qo'yilgan talablar masalasi, tashkiliy jihatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar tahlili, bu boraragi xorij tajribasi batafsil yoritib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *tijorat banki, aksiyadorlik jamiyati, muassis, ustav kapitali, dastlabki ruxsatnoma, litsenziya, yig'im, raqamli banklar.*

Har bir ishda uni davom etishdan ham ko'ra boshlab olish muhim va ko'p mehnat, qat'iyat talab qiladigan omil hisoblanadi, ayniqsa ushbu ish biror faoliyat bilan muntazam shug'ullanish maqsadini ko'zlab boshlanayotgan bo'lsa. Bank sohasida esa bu masala yana ham chuqur ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'lumki, banklarning faoliyatining asosi katta tavakkalchilik hisoblanadi, to'g'ri, tadbirkorlik shartlaridan biri ham tavakkalga asoslanganlikdir, lekin banklarda ustav kapitaliga qo'yilgan talablar mavjud, ular ustidan nazorat ham kuchli, bundan tashqari deyarli barcha aholi, hattoki davlat ham bank xizmatlaridan, bank operatsiyalaridan foydalanadi, ya'ni bank barcha mijozlar ishonchini oqlash uchun ham o'z faoliyatini qonuniy ravishda tashkil etishi, davom etishi talab etiladi. Aynan yuqoridagi faktorlar sababli ham banklarni tashkil etish jarayoni ko'p bosqichli, nisbatan murakkab jarayon hisoblanadi.

Dastavval, bank faoliyatini tashkil etishning quyidagi tamoyillarini belgilab olish mumkin:

□ tijorat banklarining kredit resurslarini – kredit berish uchun kerakli pul mablag'larini yaratishda chetdan jalb qilingan moliyaviy manbalarga tayanib ish qilish tamoyili;



- tijorat banklarining faqatgina mavjud mablagʻlar doirasidan kelib chiqib faoliyat koʻrsatishi tamoyili;
- banklar faoliyatining iqtisodiy mustaqilligi tamoyili;
- bank faoliyatining tijorat faoliyati;
- mijozlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tamoyili;
- banklarning universallasuvi, daromad olishi tamoyili.

Yaʼni banklar yuqoridagi tamoyillarga asosanib oʻz faoliyatlarini tashkil etishlari lozim. Maʼlumki tamoyil deganda, biron faoliyat mazmun-mohiyatini bir qator shartlar-talablarni belgilagan holda ochib beruvchi vositalar tushuniladi. Endi esa banklarning tashkil etilish jarayonini normativ hujjatlardan foydalangan holda koʻrib chiqamiz.

Darhaqiqat, albatta, bank tashkil etish uchun tashabbus koʻrsatilishi kerak va ushbu tashabbusni koʻrsatuvchi inson — muassis deb ataladi. “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunning 12-moddasiga koʻra, muassis resident hisoblangan jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek norezidentlar ham boʻlishi mumkin. Bunda cheklov shundan iboratki, agar tashkilotda davlat ulushi 50% dan yuqori boʻlsa u bankning muassisi va aksiyadori boʻla olmaydi. Shuningdek, bu davrda bank muassislari oʻrtasida bank tashkil etishga kelishiladi, tashabbus guruhi tuziladi, har bir muassisning ustav kapitaliga qoʻshilgan ulush miqdori belgilab olinadi, bankning taʼsis hujjatlari majmui tayyorlanadi. Keyingi masala esa nom tanlash hisoblanadi, tanlanadigan nom “Firma nomlari toʻgʻrisida”gi qonunning talablariga muvofiq holda tanlanishi hamda “bank” atamasi bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega boʻlgan yuridik shaxslar tomonidan firma nomida yoxud tovar belgisida (xizmat koʻrsatish belgisida) foydalaniladi, ushbu atamaning firma nomiga qoʻshib ishlatishi majburiy qonuniy talab hisoblanadi.

Keyingi eʼtiborga molik bosqich bu – ustav kapitalini shakllantirish bosqichidir. Aksariyat tadbikorlik subyektlari yoxud boshqa faoliyat bilan shugʻullanuvchi subyektlar doirasiga, jumladan masʼuliyati cheklangan jamiyatlarga ustav kapitalining minimal talabi belgilanmagan. Lekin banklarda bu borada minimal talab qayd etilgan va buning sababini shu bilan izohlash mumkinki, banklar oʻz xizmatlari orqali nafaqat bank-mijoz oʻrtasidagi munosabatga, shuningdek, mijoz-davlat oʻrtasidagi munosabatlarga ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Yaʼni banklarda masʼuliyat darajasi ham, majburiyatlar hajmi ham anchagina yuqori. Aynan shuning uchun ham yuqori tavakkalchilik xavfini oz boʻlsa-da kamaytirish maqsadiga ustav kapitali borasida minimal talab oʻrnatilgan.



Ushbu talab esa “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasida belgilab qo‘yilgan, unga muvofiq, bank ustav kapitalining eng kam miqdori:

- 2023-yil 1-sentabrga qadar yuz milliard so‘mni;
- 2023-yil 1-sentabrdan e‘tiboran ikki yuz milliard so‘mni;
- 2024-yil 1-apreldan e‘tiboran uch yuz ellik milliard so‘mni;
- 2025-yil 1-yanvardan e‘tiboran besh yuz milliard so‘mni tashkil etishi kerak.

Ustav kapitalini shakllantirish milliy valyutada amalga oshiriladi va bunda kreditga, garovga olingan mablag‘lardan va boshqa majburiyatni ta‘minlashga qaratilgan boshqa mablag‘lardan foydalanish ma‘n etiladi. Demak, hozirda banklar uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 300 mlrd so‘mni tashkil etadi ekan va bank qonunchiligiga ushbu o‘zgarish 2023-yil 19-aprelda kiritilgan. Shuningdek, boshqa yuridik shaxslar singari bank ham o‘z tashkiliy-boshqaruv hujjatini– ustavini shakllantirishi talab etiladi. Bank ustavida nimalar kiritilishi kerakligi esa “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida belgilab qo‘yilgan, jumladan ustavda bank nomi, ustav kapitali miqdori, uni ko‘paytirish yoki kamaytirish tartibi, aksiya chiqarish tartibi, foydani taqsimlash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralari kabilar belgilab qo‘yilishi lozim. Shuningdek aytib o‘tish lozimki, ustavga kiritilgan har bir o‘zgarish Markaziy bankdan qaytadan ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Banklarning tashkiliy-huquqiy shakliga to‘xtalinadigan bo‘lsa, banklar aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) shaklida tashkil etiladi. Tashkil etilgan tuzilma albatta davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. Banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi maxsus tashkilot “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g‘risida”gi qonun hamda 66-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-sonli qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning 1-ilovasidagi “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi. Bundan tashqari, banklar bank faoliyati bilan shug‘ullanish uchun maxsus ruxsatnoma – litsenziya olishlari talab etiladi. Bank qonunchiligiga hamda 701- sonli “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra ushbu litsenziya ham Markaziy bank tomonidan amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Litsenziya talabidan ham bank faoliyati dolzarb va muhim



faoliyatlardan biri ekanligini payqash mumkin, chunki litsenziya aynan riski yuqori yoxud aholi salomatligini himoya qilish maqsadida talab etiladi. Bank qonunchiligiga ko‘ra, banklarni litsenziyalash tartib-taomili ham quyidagi ikki bosqichga bo‘linadi:

- Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish;

- bir vaqtning o‘zida litsenziya bergan holda bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Bunda dastlabki ruxsatnoma olishda bank muassislari kelishgan holda Markaziy Bankka murojaat qilish uchun vakil tanlashlari kerak. Vakil ta‘sis shartnomasi imzolanganidan 3 oydan kechiktirmagan muhlatda kerakli hujjatlarni taqdim etgan holda dastlabki ruxsatnoma olish uchun Markaziy bankka ariza bilan murojaat qiladi. Kerakli hujjatlar ro‘yxati esa “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasida belgilab qo‘yilgan. Arizani ko‘rib chiqqanlik uchun esa BHM ning besh barobari miqdorida yig‘im undiriladi, ya‘ni joriy payt hisobida bir million yetti yuz ming miqdorda. Bank qonunchiligiga muvofiq ushbu dastlabki ruxsatnomaning amal qilish muddati maksimal olti oy hisoblanadi.

Bunda quyidagi holatlar aniqlanganda olti oy bo‘lmasdan ham dastlabki ruxsatnoma bekor bo‘lishi mumkin:

- dastlabki ruxsatnoma olishda soxta hujjatlardan foydalanilgan bo‘lsa;
- dastlab taqdim etilgan biznes-rejaga tarkibiga oid o‘zgartishlar kiritilganda;
- bankni xavfsiz va barqaror boshqarishni ta‘minlab bo‘lmasligini ko‘rsatuvchi faktlar aniqlanganda va boshqa bir qator qoidabuzarliklar yoxud nomuvofiqliklar aniqlanganda.

Bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziya olish uchun esa bunda ham bir vakil – ariza beruvchi yuqorida ikki talab aks etgan ariza bilan dastlabki ruxsatnoma olinganidan olti oydan kechiktirmagan muhlat mobaynida Markaziy bankka murojaat qilishi kerak bo‘ladi. Bunda ham litsenziya berilganligi uchun tegishli miqdorda boj undiriladi. 701-sonli “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonun hamda 600-sonli “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, ushbu miqdor quyidagi summalari tashkil etadi:

- bank faoliyati uchun: bank ustav kapitali miqdorining 0,1 %i;
- to‘lov tizimlari operatorining faoliyati uchun: bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari;



- to'lov tashkilotlari faoliyati uchun: bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari;

- valyuta birjasi faoliyati uchun: bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari.

Ariza kelib tushganidan so'ng barcha ma'lum holatlar, taqdim etilgan hujjatlar Markaziy bank tomonidan o'rganib chiqiladi va litsenziya taqdim etish yoxud litsenziya berishni va davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Dastlabki ruxsatnoma berishda ham xuddi shunday, ya'ni unda ham ikki qarordan biri qabul qilinadi. Barcha hujjatlar to'liq, qonunga mos ravishda taqdim etilgan bo'lsa, tashkil etilayotgan bank barcha talablarga javob beradigan bo'lsa, muddat masalasiga amal qilingan bo'lsa, kerakli boj yoki boshqa turdagi yig'im to'lab qo'yilgan bo'lsa, albatta, Markaziy bank tomonidan ijobiy qaror qabul qilinadi. Boshqa tarzdagi kamchiliklar aniqlangan taqdirda ham bu rad etish uchun asos bo'la olmaydi, lekin bunda Markaziy Bank mavjud aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun muayyan vaqt berishi mumkin. Endi esa rad etish asoslariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun albatta bir qator asoslar ham mavjud va bu asoslar “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunning tegishli moddasida belgilab qo'yilgan.

Litsenziya berish va davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etish asoslari ham dastlabki ruxsatnoma berishni rad etish asoslariga o'xshash, lekin bunda qo'shimcha asoslar ham mavjud va ular sirasida esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ustav kapitalining qonunchilik talablariga nomuvofiqligi, masalan tashkil etilayotgan bank ustav kapitali qonunchilikda belgilangan ustav kapitalning minimal miqdoridan ham oz bo'lsa; bank faoliyatida, uning boshqaruvida muhim ahamiyatga ega shaxslarning malakasining yetarli emasligi; texnika vositalarining, dasturiy ta'minotlarning qonunchilik talablariga mos emasligi kabilar. Bunda litsenziya berish, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartiblari yana ham batafsilroq maxsus normalarda – 701- sonli qonun hamda 66-sonli Hukumat qarorida belgilab qo'yilgan. Demak, aytish mumkinki, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish yuzasidan qaror qabul qilishda quyidagi asosiy omillarga e'tibor beriladi: bank biznes rejasining maqbulligi; bank kapitalining qonuniy talablarga mosligi; daromadlilikning kelgusidagi istiqbollari; ko'zda tutilayotgan rahbarning malakasi va obro'e'tibori; bankni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi; monopoliyaga qarshi choralar ishlab chiqilganligi kabi omillar. Markaziy bank orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, tegishli tartibda litsenziya olganidan, Markaziy bank reyestriga kiritilganidan boshlab tashkil topgan deb hisoblanadi.



Umuman olganda, nafaqat bank faoliyatini tashkil etish balki, uni tugatish jarayoni ham xuddi shu kabi murakkab jarayon hisoblanadi. Buni “Hi-Tech” bank va “Turkiston” bank misolini keltirish mumkin.

Endi esa ushbu jarayonlarni bir nechta xorij davlatlari misolida ham ko‘rib chiqamiz.

### BUYUK BRITANIYA

Buyuk Britaniyada bank ochish tartibi O‘zbekistonnikiga ancha o‘xshash. Yetarlicha mablag‘, ishonchli guruh, biznes reja va bir qator qonuniy talablarni amalga oshirish orqali bank tashkil etish mumkin. Ustav kapitali talablari direktivasiga (CDR) ko‘ra, belgilangan minimal kapital 5 million yevroni tashkil qiladi. Biroq, kichik ixtisoslashtirilgan banklar sifatida tasniflangan subyektlar, ular o‘zlarining ixtisoslashganligini asoslashlari sharti bilan, 1 million yevro yoki 1 million funt sterling miqdorida (qaysi biri yuqoriroq bo‘lsa) kamaytirilgan ustav kapitaliga ega bo‘lishlari mumkin. Buyuk Britaniya bank litsenziyasini olish, xoh onlayn bank litsenziyasi bo‘ladimi, xoh an‘anaviy bo‘lsin, qat‘iy standartlarga javob berishni talab qiladi. Bunga zaxirada yetarli mablag‘ va kuchli ma‘lumotlar xavfsizligi kiradi. Buyuk Britaniyada faoliyat shakli, xizmat turiga qarab turli litsenziyalar taqdim etiladi.

Raqamli bank litsenziyasi

Fintech litsenziyasi

Elektron pul instituti (EMI) litsenziyasi

To‘lov muassasasi (PI) litsenziyasi

Amerika Qo‘shma Shtatlari

AQSHda bank ochish bir yil yoki undan ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin bo‘lgan uzoq tashkiliy jarayonni va kamida ikkita nazorat qiluvchi organning ruxsatini o‘z ichiga oladi. Tashkilotchilar, biznes-reja, yuqori boshqaruv jamoasi, moliya, kapitalning yetarliligi, risklarni boshqarish infratuzilmasi va boshqa tegishli omillar haqida keng qamrovli ma‘lumotlar tegishli organlarga taqdim etilishi kerak. Taklif etilayotgan bank birinchi navbatda federal yoki shtat ustaviga rozilik olishi kerak. Valyuta nazorati idorasi (OCC) federal yoki "milliy bank" nizomini chiqarish uchun mutlaq vakolatga ega, har qanday shtat (va Kolumbiya okrugi, Guam, Puerto-Riko va Virjiniya orollari) davlat nizomini chiqarishi mumkin. AQSH da bank tashkil etish bosqichlari haqida to‘xtalinadigan bo‘lsa, ular quyidagilardan iborat: muayyan rejani tuzib olish; ta‘sischilar birgalikda direktorlar kengashini tuzishlari; tegishli nizomni olish uchun Hukumat regulyatorlariga murojaat qilish ; ustav federal yoki shtat organlarida tasdiqlanishi; tegishli ustav kapitalini jamg‘arish - kamida 15 million dollardan 25 million dollargacha bo‘lgan kapital; tegishli litsenziya



olish; joy, nom tanlash kabilar hisoblanadi. Agar xorijiy bank bo'lsa, AQShda sho'ba korxonasini tashkil etish uchun litsenziya talablari ariza turiga bog'liq bo'ladi: Federal yoki Davlat bank litsenziyasi, shuningdek, Federal yoki Shtat Nizomi deb ataladi.

### **KANADA**

Kanadada OSFI federal hukumat agentligi bo'lib, bank qonunchiligiga muvofiq barcha ustav banklarini nazorat qilish va tartibga solish uchun mas'uldir. Eng muhimi, banklarni birlashtirish bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish va Moliya vaziriga tavsiyalar berish uchun ham mas'ul agentlikdir. OSFI tavsiyasini olgandan so'ng, Moliya vaziri Kanadada federal tartibga solinadigan moliyaviy institutlar (FRFI) uchun arizalarni tasdiqlash bo'yicha yakuniy javobgarlikka ega.

OSFIning ariza berish jarayoni quyidagi uch bosqichga bo'lingan bo'lib, agentlik uzoq ariza berish jarayonida yo'l-yo'riq va fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun tuzilgan:

- 1-bosqich: Oldindan ariza berish;
- 2-bosqich: Xatlar patenti;
- 3-bosqich: Buyurtma.

Dastur 33 000 dollar atrofida turadi. Bu korporatsiya patentining harflari narxi hisoblanadi. 2-bosqich OSFI tavsiyasini olish va Moliya vaziridan yuridik shaxs patentini olishdan iborat. Bu bosqich oddiy nashrdan boshlanadi. Bunda bildirishnomani yoki patentga ariza berish niyatini Kanada hukumatining rasmiy gazetasi - Canada Gazette'da e'lon qilish kerak bo'ladi. Kanadada dastlab bankni tashkil etishda ustav kapitalining 5million dollar bo'lishi talab etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayev Y. Qoraliyev T. Toshmurodov Sh. Abdullayeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma – “Iqtisod-Moliya” 2009, 57-bet
2. O'zbekiston Respublikasining “Bank va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni//Qonun hujjatlari milliy bazasi, O'RQ-580-son, 15.11.2019 y. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.04.2023 yildagi O'RQ-831-son “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida <https://lex.uz/uz/docs/-6437258>



4. O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Qon hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti– <https://lex.uz/docs/-5511879>

5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Qon hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – <https://lex.uz/docs/-4680944?ONDATE=13.06.2023>

6. <https://dashdevs.com/blog/how-to-start-a-small-localised-bank-in-the-uk> — UK Banks: Peculiarities of opening your own bank. 12.12.2023

7. <https://www.incauthority.com/blog/how-to-start-a-bank/#h-how-to-start-a-bank-step-by-step> — How to start a bank in USA

8. <https://portfolioplus.com/how-do-you-open-a-bank-in-canada/> —How do you open a bank in Canada

